



**HIKOYACHILIKDA FOLKLOR OBRAZLARINING BADIY
XUSUSIYATLARI (Gʻafur Gʻulom va aka-uka Grimmlar hikoyasi asosida)**

Boltayeva Lobar Isomiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Gʻafur Gʻulom ijodiga mansub “Afandi oʻlmaydigan boʻldi” hikoyasi hamda aka-uka Grimm ertaklaridan biri boʻlgan “Choʻqintirgan ota — Ajal” asarlarida namoyon boʻladigan tabib va ajal obrazi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ikkala asarda ham xalq ogʻzaki ijodiga xos satirik va fantastik unsurlar orqali insonning taqdir, oʻlim va aldovga munosabati yoritilgan. Qahramonlarning xarakteriga asoslangan holda ular orasidagi umumiylik va farqli jihatlar aniqlanadi. Tadqiqot davomida obrazlarning badiiy talqini, ularning ijtimoiy-estetik mazmuni va oʻquvchiga beradigan maʼnaviy xulosalari koʻrsatib oʻtiladi.*

Kalit soʻzlar: *Afandi, ajal, tabib, xalq ogʻzaki ijodi, obraz, satira, ramziylik.*


**FOLKLORE IMAGES AND THEIR ARTISTIC FEATURES IN
STORYTELLING (Based on the works of Gafur Gulom and the brothers Grimm)**

Annotation: *In this article, the images of the healer and Death as depicted in Gafur Gulyam's short story “Afandi oʻlmaydigan boʻldi” and one of the Grimm brothers' fairy tales, “Godfather Death,” are analyzed from a scholarly perspective. In both works, the use of satirical and fantastical elements characteristic of folk oral tradition reveals humanity's attitude toward fate, death, and deception. Based on the characters' traits, the study identifies both similarities and differences between them. The research further examines the artistic interpretation of these images, their social and aesthetic significance, and the moral conclusions they convey to the reader.*

Keywords: *Afandi, death, healer, folklore, image, satire, symbolism.*

Folklor obrazlari adabiy jarayonning turli bosqichlarida yangicha talqinlarda namoyon boʻlib keladi. Xususan, tabib va ajal obrazi xalq ogʻzaki ijodida keng tarqalgan boʻlib, unda insonning oʻlimga munosabati, taqdirdan qochish istagi yoki oʻlimni alday olish mumkinligiga boʻlgan ishonch satirik yoki falsafiy ruhda ifodalanadi. Mazkur obraz badiiy adabiyotda ham koʻplab ijodkorlar tomonidan qayta ishlanib, oʻziga xos gʻoyaviy-badiiy mazmun bilan boyitilgan.

Oʻzbek adabiyotida bu obrazning yorqin namunalaridan biri — Gʻafur Gʻulomning “Afandi oʻlmaydigan boʻldi” hikoyasidir. Mazkur asar satirik uslubda yozilgan boʻlib, unda xalqona hazil-mutoyiba vositasida ijtimoiy-satirik mazmun ifodalanadi. Asar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qahramoni bo'lgan Afandi obrazida sodda, ammo aql-zakovati kuchli xalq vakilining ajal qarshisida o'ziga xos mardonavor pozitsiyasi tasvirlanadi.

Xuddi shunday obraz G'arb adabiyotida ham mavjud bo'lib, aka-uka Grimm ertaklaridan biri — “The Godfather — Death” (“Cho'qintirgan ota — Ajal”)da yigit obrazi orqali tabiblik mavqei, o'lim bilan yuzma-yuz kelish va taqdirga bo'lgan munosabat fantastik shaklda yoritiladi. Ikkala asarda ham qahramonlar o'limni aldashga urinishadi, biroq yakuniy xulosalar turlicha yo'sinda beriladi.

Mazkur maqolada ushbu ikki asardagi tabib va ajal obrazi qiyosiy-nazariy tahlil qilinib, ularning badiiy-falsafiy mazmuni hamda xalqona dunyoqarashdagi ramziy talqinlari ochib beriladi. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad — folklordagi abadiy obrazlarning turli madaniyat va adabiy muhitlarda qanday ko'rinishda namoyon bo'lishini ilmiy asosda yoritishdir.

“Afandi o'lmaydigan bo'ldi” asarida tabib va ajal obrazi

G'afur G'ulom o'zbek nasrining yetuk vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida xalqona satira, hayotiy kuzatuvchanlik va ramziy ifoda uslubi uyg'unlashgan. Adib nafaqat qissa, balki hikoya janrida ham o'ziga xos uslub yaratgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. “Hiylayi shar'iy” (1930), “Mening o'g'rigina bolam” (1965), “Luqmon”, “Soat”, “Farzandi solih”, “Qizaloq” kabi hikoyalarida milliy xarakter va xalqona tafakkur yorqin aks etgan. Mazkur asarlar orasida “Afandi o'lmaydigan bo'ldi” hikoyasi o'zining falsafiy-satirik yo'nalishi bilan ajralib turadi.

Asar syujeti xalq og'zaki ijodidagi mashhur qahramon — Nasriddin Afandi obraziga tayanadi. Voqealar Afandining bozor yo'lidan qaytayotganida boshlanadi. U qo'lida uch miri kumush tangaga qarab o'zi bilan o'zi suhbatlashadi. Hikoyada pulning jamiyatdagi ijtimoiy kuchi va inson tafakkuriga ta'sirini ko'rsatadi:

“—Shu tangang bo'lmasa, obro'ying bir pul, aql-u farosating, ilming hemiri, qavm-u qarindosh begona, do'st-u oshno sendan uzoq, hamma eshiklar betingga yopiq, bozor-o'chardan qadaming qir qilgan, bola-chaqa och, o'zing yalang'och...” [8.327].

Mazkur tasvir orqali adib pulning nafaqat iqtisodiy qiymatini, balki uning sotsial-psixologik ta'sirini ham ochib beradi. Afandi nutqi xalqona hazil shaklida bo'lsa-da, unda puli yo'q odamlarning real holati, boshqa odamlardan ajralib qolishi, eng yaqin odamlari ham ulardan uzoqlashishi tasvirlanadi. Bu orqali “pul – jamiyatdagi kuch va taqdiri belgilovchi omil” sifatida talqin qilinadi. Asar davomida Afandi Azroil bilan uchrashadi. Ana shu voqea tabib va ajal obrazining asosiy nuqtasini tashkil qiladi. Azroil Afandiga tabiblikni taklif qiladi:

“—Tabibchilikka ilm kerak, men esam g'irt savodsizman, alifni kaltak deya olmayman, qizamiq bilan chipqonni bir- biroidan ajratolmayman, taqsir, — dedi Afandi.

—Tabibchilikka ilmning hojati yo'q. Xuddi sendaqa avomlardan tabibning zo'ri chiqadi,—dedi Azroil...” [8.331].

Mazkur suhbat orqali muallif jamiyatda savodsiz, lekin o'zini tabib deb tanituvchi soxta shifokorlar masalasini ko'taradi. Bu obraz bugungi kunda ham o'z dolzarbligini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yo'qotmagan. Adib xalq orasida uchraydigan firibgarlik, mehnatsiz boylikka intilish, o'z sohasidan boshqa sohada, garchi uquvi bo'lmasa-da, ustasifarang qilib ko'rsatish kabi illatlarni keskin tanqid qiladi.

Tadqiqotchi [11.20] ta'kidlaganidek, G'afur G'ulom xalq latifalari va rivoyatlaridan samarali foydalangan holda ularni ijtimoiy mazmunga ega badiiy shaklga aylantira olgan. Demak, "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" hikoyasi nafaqat kulgili voqea, balki hayot falsafasini ifodalovchi asardir.

The godfather — death” (“cho‘qintirgan ota — ajal”) asarida tabib va ajal obrazi

Aka-uka Grimmlarning mashhur ertagi "The Godfather — Death" ("Cho'qintirgan ota — Ajal") Yevropa folkloridagi falsafiy va didaktik ruhdagi syujetlardan biridir. Asarda kambag'al yigit tasviri orqali insonning taqdir va o'linga bo'lgan munosabati badiiy tarzda yoritiladi. Qahramonning cho'qintirgan otasi sifatida Ajal tanlangan, chunki u dunyodagi yagona adolatli kuch sifatida talqin qilinadi: u boyni ham, kambag'alni ham, yoshni ham, qarini ham ayamaydi. Shu tariqa ertakda Ajal — "hayotning yagona muvozanat yaratuvchi kuchi" sifatida gavdalanadi. Ajal yigitga tabiblik sirini o'rgatadi:

"When thou art called to a patient, I will always appear to thee. If I stand by the head of the sick man, thou mayst say with confidence that thou wilt make him well again, and if thou givest him of this herb he will recover; but if I stand by the patient's feet, he is mine ..." [1.172].

Tarjimasi: "Seni kasal odamning oldiga chaqirishganda, men senga ko'rinaman. Agar men bemorning bosh tarafida bo'lsam, sen uning tuzalishini ishonch bilan aytishing mumkin; va keyin agar unga bu giyohdan bersang, u tuzaladi. Ammo agar men uning oyoq tomonida turgan bo'lsam — u meniki..."

Mazkur epizod orqali tabibning haqiqiy kuchi bilim yoki tajribada emas, balki Ajalning ruxsatida ekanligi ko'rsatib beriladi. Demak, bu ertakda "tabib – taqdir vositachisi" sifatida talqin qilinadi.

Qahramon dastlab ertakdagi kabi ko'plab bemorlarni davolaydi va shu sababli shon-shuhrat orttiradi. Biroq syujetning eng muhim nuqtasi shundaki, u Ajalning irodasiga qarshi chiqib, taqiqlangan holatda giyoh ishlatadi. Natijada Ajal uni ogohlantiradi va jazolaydi. Bu orqali ertak inson o'z manfaatlari yo'lida umumiy hayot qonunlariga zid harakat qilsa, u baribir mag'lub bo'lishini anglatadi.

Tabib va ajal obrazining qiyosiy tahlili

G'afur G'ulomning "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" asari ham, Grimmning "The Godfather — Death" ertagi ham o'ziga xos tarzda inson va o'lim o'rtasidagi munosabatni talqin qiladi. Har ikkala asarda ham qahramon umrni uzaytirish yoki o'limni aldash istagi bilan maydonga chiqadi. Biroq bu istakning berilishi, talqini va yakuniy bahosi har xil yo'sinda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, obrazning kelib chiqish manbalari turlicha. "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" asari satirik-realist yo'nalishda bo'lib, unda hazil orqali falsafiy mazmun ochiladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Grimm ertagi esa fantastik-didaktik xarakterga ega bo'lib, unda axloqiy mazmun yetakchi o'rinni egallaydi.

Ikkinchidan, qahramonlarning ajalga munosabatida sezilarli farq mavjud:

Afandi — ajalni o'ziga teng raqib deb biladi va uni aql va topqirlik bilan aldashga urinadi;

Grimm qahramoni esa avval Ajalni ustoz sifatida qabul qiladi, undan qo'rqadi, keyin esa o'zining manfaati sabab unga xiyonat qilgani uchun jazolanadi.

Uchinchidan, tabiblik obrazining talqini ham farqlanadi. "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" asarida Afandi yolg'on va nayrang bilan tabiblikka erishgan, unda jamiyatdagi soxta kasb egalari tanqid qilingan bo'lsa, aka-uka Grimmlar ertagidagi qahramon bola tabiblikka ajalning hadya qilgan siri orqali erishgan, ilmga emas, taqdirdan ruxsatga bog'liq. Demak, har ikkala asarda ham tabiblik muqaddas kasb sifatida emas, balki insoniy illatlarni ochib beruvchi vosita sifatida qo'llanadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, tabib va ajal obrazi sharq va g'arb adabiyotida turlicha talqin qilinsa-da, ularning asosiy mazmuni insonning taqdir va o'lim oldidagi o'zligi, biroq shu bilan birga uning aql va iroda kuchi bilan yashashga intilishidir. G'afur G'ulom asarida bu obraz kulgi orqali berilsa, Grimm ertagida esa axloqiy saboq ko'rinishida yoritiladi.

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, folklor obrazlari har qanday davr va jamiyatda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Ajal mavzusi insoniyat tarixida eng qadimiy falsafiy masalalardan biri bo'lib, u har safar yangi badiiy shakl va zamonaviy talqinlarda namoyon bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. From Jacob and Wilhelm Grimm, Household Tales, trans. Margaret Hunt. — London: George Bell, 1884.
2. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B. va boshqalar. XX asr adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1999. — 544 b.
3. Kiyikbayev F. Bolalar adabiyoti. — Andijon: 2020. — 255 b.
4. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. — Marseille, 2015. — pp. 40-43.
5. Matyokubova, T., & Yakubov, I. Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of Critical Reviews, № 7, 2020. — pp. 28-37.
6. Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118). — pp. 521-524.
7. Nosirjanovna Sh. G'afur G'ulom nasriy merosining janriy rang-barangligi va ichki rivoji. — O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi Respublika 28-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallaridan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

8. Ғафур Ғулом. Танланган асарлар: назм ва наср. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. — 352-б.

9. Шарафиддинов О. Истеъдод жилolari. Адабий портретлар. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. — 232-б.

10. Ғафур Ғулом замондошлари хотирасида / Тўпловчи: Олмос. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003. — 95-б.

11. Ғафур Ғулом ижодининг маънавий-маърифий аҳамияти. Масъул муҳаррирлар: филология фанлари докторлари Наим Каримов ва Тўра Мирзаев. — Тошкент: ЎзР ФА Ишлар бошқармаси, 2003. — 40-б.

